

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TASVIRI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19729527>

Ochildiyeva Farangis Haydarzoda
O'zDJTU, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlarida milliy qadriyatlarning aks etishi tahlil qilinadi. Adibning “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari misolida o'zbek xalqiga xos urf-odatlar, axloqiy qarashlar, oila muqaddasligi, sevgi va sadoqat kabi tushunchalar yoritilgan. Shuningdek, yozuvchining jamiyatdagi kamchiliklarga bo'lgan munosabati va tanqidiy qarashlari ham ochib beriladi. Maqola yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda Qodiriy ijodining ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar

milliy qadriyatlar, o'zbek adabiyoti, O'tkan kunlar, Mehrobdan chayon, oila muqaddasligi, sevgi va sadoqat, urf-odatlar, ma'naviyat, tarbiya, adabiy meros.

Абстрактный

В данной статье анализируется отражение национальных ценностей в творчестве Абдуллы Кадири. На примере авторских произведений «Откан куналар» и «Мехробдан чайан» освещены традиции, нравственные взгляды, семейная святость, любовь и верность узбекского народа. Также раскрываются мироощущение и критические взгляды писателя на недостатки общества. Цель статьи - показать значение работы Кадири в воспитании молодого поколения в национальном духе.

Ключевые слова

национальные ценности, узбекская литература, былые времена, скорпион из Мехроба, святость семьи, любовь и верность, традиции, мораль, образование, литературное наследие.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Qodiriy alohida o'rin egallaydi. Uning asarlari xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib unda milliy qadriyatlar chuqur aks ettirilgan. Har bir millatning o'ziga xosligi uning urf-odatlari, an'analari va ma'naviy qarashlarida namoyon bo'ladi. Qodiriy ana shu jihatlarni badiiy mahorat bilan tasvirlab o'z asarlarini nafaqat badiiy balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim manbaga aylantirgan.

Bugungi kunda yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli Qodiriy asarlarida aks etgan milliy qadriyatlarni o'rganish va targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida insoniylik, mehr-oqibat, sabr-toqat, vafodorlik kabi fazilatlar alohida o'rin tutadi va bu esa o'quvchini chuqur o'ygacha chorlaydi. O'zbek adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan buyuk adib Abdulla Qodiriy ijodi milliy ruh va qadriyatlar bilan sug'orilgan bebaho meros hisoblanadi. Uning asarlarida nafaqat tarixiy voqealar, balki o'zbek xalqining urf-odati, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari chuqur va ta'sirchan tarzda yoritilgan. Qodiriy o'z asarlari orqali millatning o'zligini anglashga xizmat qilgan yozuvchilardan biridir.

Adibning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "O'tkan kunlar" romanida milliy qadriyatlar juda yorqin tasvirlangan. Asarda oila muqaddasligi, ota-ona roziligi, sevgi va sadoqat kabi tushunchalar asosiy o'rin tutadi. Otabek va Kumush obrazlari orqali yozuvchi o'zbek xalqiga xos pok muhabbat, vafodorlik va sabr fazilatlarini ko'rsatadi. Ayniqsa Kumushning fe'l-atvori, uning hayo va odobi milliy qadriyatlarning eng go'zal namunasi sifatida gavdalanadi.

Qodiriy asarlarida milliy qadriyatlar faqat ijobiy jihatdan emas, balki tanqidiy ruhda ham yoritiladi. Masalan eski urf-odatlar, majburiy nikoh, ayollarga nisbatan adolatsizlik kabi holatlar orqali jamiyatdagi kamchiliklar ochib beriladi. Bu orqali yozuvchi xalqni o'ylashga, o'z hayotiga tanqidiy qarashga undaydi. Shu jihatdan uning ijodi faqat tasvir emas, balki tarbiya vositasi ham hisoblanadi.

"Mehrobdan chayon" asarida ham milliy qadriyatlar va diniy tushunchalar o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. Bu asarda insoniylik, adolat va haqiqat uchun kurash g'oyalari ilgari suriladi. Qahramonlarning ichki kechinmalari orqali yozuvchi jamiyatdagi ma'naviy muammolarni ochib beradi va o'quvchini to'g'ri yo'l tanlashga undaydi. Qodiriy tilidan foydalanish mahorati ham milliy qadriyatlarning bir ko'rinishidir. U xalqona iboralar, maqollar va jonli tasvirlar orqali asarlarini hayotiy va ta'sirchan qiladi. Bu esa o'quvchiga o'z milliy muhitini yanada chuqurroq his qilish imkonini beradi. Qodiriy asarlarida milliy qadriyatlar faqatgina o'tmishni tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi balki kelajak avlod uchun ibrat maktabi vazifasini ham bajaradi. Yozuvchi qahramonlar taqdiri orqali inson hayotida to'g'ri tanlov qilish naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa yoshlar uchun bu asarlar hayotiy saboq bo'lib xizmat qiladi chunki unda yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, adolat va zulm o'rtasidagi farq aniq tasvirlangan

Adib milliy qadriyatlarni asrash bilan birga ularni zamon talablari asosida boyitish zarurligini ham bilvosita anglatadi. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois Abdulla

Qodiriy ijodi nafaqat adabiy meros balki ma'naviy tarbiya manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytganda Abdulla Qodiriy asarlari o'zbek xalqining ma'naviy boyligini aks ettiruvchi bebaho manba hisoblanadi. Uning ijodida milliy qadriyatlar nafaqat tasvirlanadi balki ulug'lanadi va asrab-avaylashga chaqiriladi. Bugungi kunda ham bu asarlar yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy - "O'tkan kunlar" romani
2. Abdulla Qodiriy - "Mehrobdan chayon" romani
3. O'zbek adabiyoti tarixi darsliklari
4. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy maqolalar va qo'llanmalar